



№10 Ma`ruza

ATROF MUHIT MUHOFAZASI ASOSLARI VA PRINTSIPLARI

REJA

- 1. Atrof muhit muhofazasi masalasida muhit tushunchasi.**
- 2. Atrof muhit muhofazasi asoslari.**
- 3. Atrof muhit muhofazasida atmosfera va o`simliklar muhofazasi munosabatlari.**
- 4. Atrof muhit muhofazasida chiqindilarning chiqishi**
- 5. Ekologik ta`lim tarbiya**
- 6. Atrof muhit muhofazasi uchun ko`rilayotgan chora-tadbirlar**

*Lektor: T.f.d., Ekologiya va hayot xavfsizligi xalqaro
fanlar akademiyasi a`zosi Jumayeva D.J.*

Ekologik aforizmlar



«...mazmun-mohiyatiga ko‘ra, sotsial-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy islohotlarni, biz tanlagan davlat va jamiyat qurilishi modelini tatbiq etish jarayonida fuqarolarning mamlakat boshqaruvidagi rolini oshirib borishni asosiy o‘ringa qo‘yadigan «Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari» dasturini amalga oshirish bo‘yicha ishlarni yanada faollashtirish masalasini bugun hayotning o‘zi kun tartibiga tobora qat’iy qilib qo‘ymoqda».

I.A.Karimov

Атроф-муҳит масаласида муҳит тushunchasi



Биз муҳит деганда — организмларни ураб турган барча омиллар йигиндисини тушунамиз. Муҳит купинча элементлардан ташкил топган булиб, уларнинг айримлари организм учун зарур, айримлари бефарқ, учинчи бирлари эса зарарли таъсир килади.

Организмни ураб турувчи ва у билан доимий муносабатда буладиган табиатнинг бир қисми ҳаёт муҳити деб аталади. Ер юзида организмлар 4 ҳаёт муҳитини узлаштирганлар. Булар сув, тупроқ, ҳаво ва организмлар муҳитидир. Организмларнинг яшаши учун бир ёки бир нечта муҳитлар зарурдир. Ҳаёт муҳитлари алоҳида яшаш муҳитларига булинади. Яшаш муҳити - ҳаёт муҳитининг географик ва экологик хусусиятлари билан ажралувчи қисмидир. Масалан, сув ҳаёт муҳитида чучук ва шур сувли яшаш муҳитлари, оқар ва оқмас яшаш сув муҳитларига ажратилади. Яшаш муҳити, яшаш жойи ва геотопларга булинади.

Экотизимнинг барча элементлари ҳам биотик, ҳам абиотик омиллар таъсириданандир. Бу жараёнлар муайян муҳит шароитларида руй беради

Atrof muhit muhofazasi asoslari

Mamlakatimiz mustaqil taraqqiyot yo‘lining ilk kunlaridan atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta‘minlash davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi. O‘tgan yillarda Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida mazkur yo‘nalishda keng qamrovli islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilib, mamlakatimizda ekologik munosabatlarni tartibga solishning huquqiy asoslari yaratildi, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanishning barqaror mexanizmi shakllantirildi.



Atrof muhitni muhofazasi masalalari

Tabiatni muhofaza qilish - tabiat va uning boyliklaridan oqilona foydalanishga, tabiatni inson manfaatlarini koʻzlab ongli ravishda oʻzgartirishga, tabiat boyliklari va umuman tabiatni, uning goʻzalligi, musaffoligini saklab qolishga va yanada boyitishga qaratilgan barcha tadbirlar majmuasi. Tabiatni muhofaza qilishq. tadbirlari majmuasiga davlatlar, xalqaro tashkilotlar, jamoat, ilmiy-texnik, ishlab chiqarish., iqtisodiy va maʼmuriy tashkilotlar, har bir odam tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar kiradi. Hozirgi vaqtda inson yashab, toʻxtovsiz munosabatda boʻlib kelayotgan tabiiy muhit uzoq geologik davrlar (4,5—4,7 mlrd. yil) mobaynida bir qancha omillarning birgalikda taʼsirida, yaʼni Quyosh nuri, Yerning massasi, gravitatsiya kuchi, koʻlami, aylanma harakatlari, tektonik harakatlar, havo va suv qobiqlarining vujudga kelishi va oʻzgarishi, ekzogen jarayonlar taʼsiri, organik dunyoning paydo boʻlishi va taraqqiyoti taʼsirida tarkib topgan.



Atrof muhit muhofazasida atmosfera va o`simliklar muhofazasi munosabatlari

«Atmosfera havosini muhofaza qilish to`g`risida»gi qonunning 28-moddasiga muvofiq, atmosfera havosini muhofaza qilish ustidan idoraviy, ishlab chiqarish va jamoat nazorati qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishi belgilangan.



Shunga o`xshash normani «O`simlik dunyosidan foydalanish va uni muhofaza qilish to`g`risida»gi qonunning 27-moddasida ham uchratish mumkin. Bu ikkala qonun normalarining tahlili shuni ko`rsatadiki, ularda bevosita jamoat birlashmalarining huquqlari doirasi aniq belgilab berilmasdan, boshqa tegishli qonun hujjatlariga havola etilgan.



Atrof muhit muhofazasida chiqindilarning chiqishi

«Chiqindilar toʻgʻrisida»gi qonunning 13-moddasida «...chiqindi bilan bogʻliq ishlarni amalga oshirish obyektlarining sanitariya va ekologik holati ustidan jamoat nazoratini amalga oshirishda ishtirok etish» huquqlariga ega ekanliklari, «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar toʻgʻrisida»gi qonunning 10-moddasida «...fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tashkil etilayotgan, muhofaza qilinayotgan hamda ulardan foydalanilayotganda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jamoat ekologiya ekspertizasini oʻtkazishlari va jamoat ekologiya nazoratini amalga oshirishlari» mumkinligi kafolatlangan boʻlsa-da, lekin jamoat nazorati va jamoat ekspertizasini amalga oshirish tartibi bilan bogʻliq masalalar ochiq qolgan.



Ekologik ta`lim tarbiya

Atrof-muhitni muhofaza qilish va mavjud tabiiy resurslardan samarali foydalanish masalalari hozirgacha dolzarbligicha qolmoqda. Ekologik inqirozning sababchisi va o'z aqli zakovati bilan shu inqirozdan xoli etuvchisi ham inson ekanligi ma'lum bo'lib qoldi. Atrof-muhitni ifloslanishdan saqlash, tabiiy boyliklardan tejab-tergab foydalanish ko'p jihatdan insonlar qaysi jamiyatda yashashlaridan qat'iy nazar insonlarning ekologik savodxonlik darajasiga va ekologik madaniyatiga bog'liq. Mustaqil respublikamizdagi ekologik muammolarni hal qilish uchun aholining ekologik savodxonligini oshirish eng ustuvor vazifalardan hisoblanadi.



Ekologik ta'lim tarbiya

Ekologik ta'lim-tarbiyannig mohiyati. O'zbekiston Respublikasi rahbariyati tomonidan chiqarilgan ko'p qarorlarda tabiat muhofazasiga oid ishlarni kengaytirish va takomillashtirish hamda bu soha bo'yicha mutaxassislarni fan-texnika taraqqiyoti talabiga javob beradigan darajada tayyorlash ko'zda tutiladi. Bu muammolarning hal bo'lish mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yangi bosqichga ko'tarishda koinotning bir qismi bo'lmish ona tabiatimizni saqlash, uning tabiiy boyliklaridan rejali va tejamkorlik bilan foydalanish, tirik jonzorlar; shu jumladan, inson uchun toza havo, suv va tuproq, o'simlik va hayvonlarning yashash muhitini saqlashda kerak.



Ekologik ta'lim tarbiya

Buning uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish shart

- 1. Tabiat muhofazasiga oid ekologik ta'lim-tarbiyani kuchaytirish va to'g'ri yo'lga qo'yish uchun pedagogik tajribalar, kuzatishlar olib borish bilan bir qatorda o'quv darsliklarini yaratish, etarli darajadagi yuqori ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash shart;**
- 2. Ekologik ta'lim-tarbiyani hamma joyda aholining turli guruhlari o'rtasida uzluksiz olib borish, o'quvchilarga tabiatga mehr-muhabbat uyg'otish, ularning malakalarini oshirish, tabiiy boyliklarni saqlash, tejash borasida yoshlarni ekologik iqtisodchi qilib yetishtirish kerak;**
- 3. Voqelikni o'rganish, muhitni muhofaza qilish borasida bog'cha, maktab bolalaridan toritib, yuqori yoshdagi rahbarlarda ekologik ta'lim-tarbiyaga nisbatan chidam, bartosh, toqat ko'nikmalar hosil qilib, ularga atrof-muhitga oid ta'lim beradigan qisqa va ko'p yillik kurslarni tashkil qilish shart;**
- 4. Ekologik ta'lim-tarbiya olgan kishilar o'zlari yashab turgan joylarning ekologik holatidan xabardor bo'lishlari, yoshlarga o'rgatishlari, tabiatda biror-bir ekologik o'zgarish sodir bo'lsa, kerakli tashkilotlarga xabar berish yo'llarini bilishlari kerak.**


Atrof muhit muhofazasi uchun ko`rilayotgan chora-tadbirlar

Hozirgi paytda dunyo miqyosida tuproq, suv va havoni ifloslanishining o`rtacha 40 % i harbiy soha hisobiga to`g`ri kelmoqda. Bu soha atrof-muhitni ifloslantiribgina qolmay, balki juda katta miqdordagi ishlab chiqarish kuchlari va mablaglarning behuda sarflanishiga olib keladi. Vaholanki, agar harbiy maqsadlarga sarflanayotgan kuch va mablag`ning bir qismini sarflash orqali ekologiya va tinchlik borasidagi juda ko`plab muammorarni hal etish mumkin



Atrof muhit muhofazasi uchun ko`rilayotgan chora-tadbirlar

Inson va atrof-muhit o`rtasidagi uzaro munosabatlar keskinlashgan, fan-texnika jadal rivojlangan davrda tabiatni muhofaza qilish eng asosiy muammolardan hisoblanadi. Tabiatni muhofaza qilish tushunchasi insonning atrof muhitga salbiy ta`siri yuzaga kelgan uzoq o`tmishdan yaxshi ma`lum. Agar ilgari tabiatni muhofaza qilish deganda ma`lum amaliy tadbirlar majmuasi tushinilgan bo`lsa, so`nggi yillarda alohida kompleks fan shakllanmoqda. Tabiatni muhofaza qilish deganda hozirgi va kelgusi avlodlarning extiyojlarini xisobga olgan holda tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni musaffo holida saqlashga qaratilgan, ilmiy asosda amalga oshiriladigan mahalliy, davlat va xalqaro tadbirlar majmuasi tushuniladi.



Atrof muhit muhofazasi uchun ko`rilayotgan chora-tadbirlar

Tabiatni muhofaza qilish – jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida maqsad va mazmuniga ko`ra farqlangan. Tabiatni muhofaza qilishning dastlabki bosqichida yuqolib borayotgan alohida o`simlik va xayvon turlarining muhofazasi amalga oshirilgan. Insoniyatning ehtiyojlari o`sishi bilan tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish bosqichi vujudga kelgan. Atrof-muhitning hozirgi zamon ekologik muhofazasi bosqichi – insonning tabiatga ta`siri umumsayyoraviy miqyosga yetgan XX asrning o`rtalarida boshlangan.



Atrof muhit muhofazasi uchun ko`rilayotgan chora-tadbirlar

O'zbekiston Milliy matbuot markazida Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, maishiy chiqindilarni boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan tadbirlar o'tkazilmoqda. Prezidentimizning 2017-yil 21-apreldagi "2017-2021-yillarda maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan kompleks dastur qabul qilingan bo'lib, 13 "Toza hudud" davlat unitar korxonasi va ularning 174 ta tuman (shahar) filiallari tashkil etildi. Ular balansiga 1 ming 372 maxsus texnika, 1 ming chiqindi to'plash maydonchasi, 5 ming 800 konteyner va 172 poligon o'tkazildi.



Atrof muhit muhofazasi uchun ko`rilayotgan chora-tadbirlar

Bugungi kunda barchani tashvishga solayotgan transchegaraviy ekologik muammolarni bartaraf etish, xalqaro hamjamiyatning bu boradagi sa'y-harakatlarini kuchaytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. alqaro huquqiy tajriba, zamonaviy fan, texnika va texnologiyalar asosida ekologik xavfsizlikning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekistonda bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda ekologik xavfsizlik sohasidagi siyosat O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik konsepsiyasi, shuningdek, atrof-muhit va barqaror rivojlanish bo'yicha Rio-de-Janeyro va Yoxannesburg deklaratsiyalarining tamoyillari asosida xalqaro konvensiyalar va shartnomalardan hamda yetakchi davlatlarning qonunchilik sohasidagi tajribalaridan kelib chiqadigan davlat majburiyatlarini hisobga olgan holda olib boriladi.




Atrof muhit muhofazasi uchun ko`rilayotgan chora-tadbirlar

Atrof-muhit, aholi salomatligini muhofaza qilish va ekologik vaziyatni sog' - lomlashtirishda keng jamoatchilikning faol ishtirokini ta`minlash, atrof - muhit holatining inson salomatligi bilan o'zaro munosabati yuzasidan O'zbekiston ekologik harakati keng jamoatchilik, o'zini - o'zi boshqarish organlari ishtirokida qator tadbirlar o'tkazib kelmoqda. Ayniqsa, Ekoharakat faollarining «Tojikiston alyuminiy kompaniyasi» davlat unitar korxonasi faoliyatining atrof - muhitga va inson salomatligiga zararli ta`siriga qarshi Surxondaryo viloyatida o'tkazgan ommaviy tadbirlari O'zbekiston ekologik harakatining o'z maqsad va vazifalariga erishish yo'lidagi amaliy sa`y-harakatlarining yorqin isbotidir.



Mavzu yuzasidan savollar:

- 
- 1. Atrof muhit muhofazasi masalasida muhit tushunchasi qanday ma`noga ega?**
 - 2. Atrof muhit muhofazasi asoslarini izohlab bering?**
 - 2. Atrof muhit muhofazasida atmosfera va o`simliklar muhofazasi munosabatlari qanday shakllanmoqda?**
 - 3. Atrof muhit muhofazasida chiqindilarning chiqishi miqdorining inson salomatligiga ta`siri qanday?**
 - 4. Ekologik ta`lim tarbiya tushunchasini izohlang?**
 - 5. Atrof muhit muhofazasi uchun ko`rilayotgan chora-tadbirlar nimalarda o`z aksini topmoqda?**

A close-up photograph of a bouquet of light pink roses. The roses are the central focus, surrounded by small white baby's breath flowers and silver and white striped ribbons. The background is dark and out of focus.

***E`tiboringiz uchun
tashakkur***